

AXSIKENT ARXEOLOGIYA PARKI

Professor Abdulxamid Anarbayev

Fanlar akademiyasi, Antropologiya instituti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21029390>

Annotatsiya: Maqolada Axsikent arxeologiya parkining tashkil etilishi, uning tarkibiga kiruvchi VIII, XVIII va XIX obyektlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari yoritilgan. Tadqiqotlar davomida miloddan avvalgi III asrdan milodiy XIII asrgacha bo‘lgan davrlarga oid madaniy qatlamlar, turar joy qoldiqlari, mudofaa inshootlari hamda noyob yer osti suv ta’minoti tizimlari aniqlangan. X–XII asrlarga oid mahobatli turar joylar, sinchli me’morchilik an’analari, ganch bezaklar va devoriy rasmlar Axsikent aholisining yuksak moddiy madaniyatidan dalolat beradi. Shuningdek, maqolada o‘rta asrlar davriga oid gidrotexnik inshootlarning qurilish texnologiyasi, ularning uzoq muddat faoliyat ko‘rsatgani hamda Farg‘ona vodiysida muhandislik tafakkurining rivojlanganligi tahlil qilingan. Axsikent arxeologiya parkining ilmiy, madaniy va turistik salohiyati baholanadi.

Kalit so‘zlar: Axsikent, Axsikat, arxeologiya parki, shahriston, arxeologik yodgorlik, yer osti suv tarmog‘i, vodoprovod, gidrotexnik inshoot, mudofaa devori, Farg‘ona vodiysi, arxeologik turizm, o‘rta asrlar me’morchiligi.

Аннотация: В статье рассматриваются результаты археологических исследований, проведённых на территории археологического парка Аксикент, созданного на базе городища древнего города Ахсикат. Особое внимание уделено объектам VIII, XVIII и XIX, где выявлены остатки жилых комплексов, оборонительных сооружений и уникальных подземных систем водоснабжения, функционировавших в X–XII веках. Анализируются особенности строительных технологий, гидротехнических сооружений, городской инфраструктуры и инженерных

решений средневекового населения Ферганской долины. Полученные материалы свидетельствуют о высоком уровне развития градостроительства, архитектуры и водного хозяйства Аксикента. Также раскрывается научный, культурный и туристический потенциал археологического парка как важного объекта историко-культурного наследия Узбекистана.

Ключевые слова: Аксикент, Ахсикат, археологический парк, археологические исследования, городище, шахристан, подземный водопровод, гидротехнические сооружения, оборонительные стены, Ферганская долина, средневековый город, археологический туризм.

Abstract: The article presents the results of archaeological research conducted within the Axsikent Archaeological Park, established on the site of the ancient city of Akhsikat. Particular attention is paid to Objects VIII, XVIII, and XIX, where remains of residential complexes, defensive structures, and unique underground water supply systems dating to the 10th–12th centuries were discovered. The study analyzes construction techniques, hydraulic engineering facilities, urban infrastructure, and engineering achievements of the medieval population of the Fergana Valley. The obtained materials demonstrate the high level of development of urban planning, architecture, and water management in Axsikent. The article also highlights the scientific, cultural, and tourism potential of the Axsikent Archaeological Park as an important historical and cultural heritage site of Uzbekistan.

Keywords: Axsikent, Akhsikat, archaeological park, archaeological research, ancient settlement, shahristan, underground water supply system, hydraulic engineering structures, defensive walls, Fergana Valley, medieval city, archaeological tourism.

Axsikent yodgorligi qadimgi Farg‘ona-Axsikat shaharining qoldiqlari hisoblanadi. So‘nggi yillarda Respublika Prezidentining tashabbusi bilan Axsikent

yodgorligi asosida “Axsikent arxeologiya parki” tashkil qilinmoqda. Shu kunlarda ushbu park doirasida 3 ta obyektning (VIII, XVIII, XIX) usti yopilib ochiq osmon ostida muzey tayyorlanmoqda. Bu yerda arxeologiya ishqibozlari professional arxeologlar rahbarligida arxeologik tadqiqotlarda ishtirok etishlari mumkin bo‘lgan arxeologik turizmni tashkil etish imkoniyati mavjud (rasm 1).



Rasm 1.

VIII-obyekt birinchi shahristonning (Aksi IA) shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan. Yuqorida qayd etilganidek, bu yerda miloddan avvalgi III asrdan milodiy XIII asrgacha bo‘lgan davrga oid madaniy qatlamlar, yer osti suv ta‘minoti tizimi (“vodoprovod”) hamda X–XII asrlarga oid turar joy qoldiqlari aniqlangan. Turar joy sinch uslubida qurilgan bo‘lib, devorning asosini yog‘ochdan tiklangan karkas tashkil qiladi. Ushbu turar joy ikki qismdan iborat bo‘lgan: yashash uchun

mo‘ljallangan hashamatli va xo‘jalik qismlar. Hashamatli qismdan faqat ayrim joylarda devorlarning poydevorlari, ganchga o‘yilgan bezaklar, devoriy rasm parchalari saqlanib qolgan, xolos. Xo‘jalik qismi esa nisbatan yaxshi saqlangan bo‘lib, unda oshxona, omborxona va uy hammomini (“g‘uslxona”)ni ajratish mumkin. Ganch bezaklar va devoriy rasmlarga qaraganda, bu yerda badavlat oyila yashagan, degan xulosaga kelish mumkin. Afsuski, ushbu mahobatli uy XIII asr boshlarida vayronga aylangan (rasm 2).



Rasm 2

Yer osti suv tizimi (vodoprovod) o‘sha davr yer sathidan taxminan 5 metr chuqurlikda pishiq g‘ishtlardan qurilgan bo‘lib, gumbazsimon galereya ko‘rinishida barpo etilgan. Uning ichidan diametri 24–26 sm bo‘lgan yirik sopol quvurlardan iborat suv tarmog‘i o‘tgan va u 200 yildan ortiq vaqt davomida faoliyat ko‘rsatgan. Obyektning janubiy qismida turar joy polidan pastga, pishiq g‘ishtdan

qurilgan gumbazli yer osti xonasiga olib boruvchi zinapoya qoldiqlari aniqlangan. Ushbu eroosti xonasining markazida o‘lchami $1,0 \times 0,70$ m va chuqurligi 0,50 m bo‘lgan rezervuar-hovuz joylashgan. Yuqorida tilga olingan quvurlarda oqqan suv ushbu hovuzga shimoldan kelib tushgan, so‘ngg, yana quvurlar orqali janub tomonga oqishda davom etgan. Afsuski, gumbazli xona va unga olib boruvchi zinapoyaning shifti saqlanmagan (rasm 3).



Rasm 3

XVIII-obyekt VIII-obyektrning (Axsi IA) yonida, uning shimol tomonida joylashgan (rasm 1; rasm 4). Bu yerda mahobatli turar joy qoldiqlari, shimol–janub yo‘nalishida o‘tuvchi eroosti suv tarmog‘i (“vodoprovod”) hamda mo‘g‘ullar bosqini arafasida barpo etilgan birinchi shahristonning mudofaa devori aniqlangan. Mahobatli inshoot vayron bo‘lgan bo‘lib, undan faqat devorlarning ayanchli qoldiqlari va devoriy rasm parchalari saqlangan suvoq bo‘laklari qolgan, xolos. Tabiiy ravishda, bu mahobatli turar joy inshootiga nima bo‘lgan?, degan savol tug‘iladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, sinchli (karkasli) bino XIII asr boshlarida yuz bergan zilzila natijasida jiddiy zarar ko‘rgan. Shunday taassurot paydo

bo‘ladiki, uy egasi zilzila yetkazgan talafotlardan keyin uni tiklashga ham ulgurmagan. Chunki 1211–1213-yillarda Shimoliy Farg‘onada Kushluqxon boshchiligidagi nayman qabilalarining talonchilik yurishlari bo‘lib o‘tgan. Ushbu bosqinlar va Muhammad Xorazmshoh bilan Qushluqxon o‘rtasidagi o‘zaro urushlar Shimoliy Farg‘ona shahar va qishloqlariga, jumladan, Axsikatga ham katta zarar yetkazgan. Mazkur voqealar sababli, ehtimol, uy egasi binoni qayta tiklashga urinmagan. Aksincha, u butun yog‘och karkasni qismlarga ajratib, boshqa joyga olib ketgan ko‘rinadi.

Obyektda yuqorida tilga olingan noyob gidrotexnik inshoot — yer osti suv tizimi va unga olib boruvchi zinapoya aniqlangan. Yuqorida tilga olingan binoning polidan pastda pishiq g‘ishtlardan qurilgan, erosti suv tarmog‘iga olib boruvchi zinapoya qoldiqlari topilgan. Zinapoya dastlab janubdan shimolga so‘ngg, kichik maydonchadan o‘tib sharqqa buriladi va kichik yer osti xonasiga olib kiradi. Zinapoya $26\text{--}29 \times 14\text{--}16 \times 3\text{--}4$ sm o‘lchamdagi pishiq g‘ishtlardan qurilgan gumbazsimon galereya bilan yopilgan. Xonaning markazida o‘lchami $0,96 \times 0,68$ m va chuqurligi 0,40 m bo‘lgan rezervuar-hauz mavjud. Suv bu hovuzga shimoldan quvurlar orqali oqib tushgan va undan janub tomonga yana quvurlarda oqishda davom etgan. Sopol quvurlardan tashkil topgan suv tarmog‘i pishiq g‘ishtlardan qurilgan gumbazsimon yer osti inshooti ichidan o‘tgan. Zinapoya, uning gumbazli shifti, devorlari (sharqiy devordan tashqari) hamda yer osti xonasining poli $26\text{--}29 \times 14\text{--}16 \times 3\text{--}4$ sm o‘lchamdagi to‘g‘ri to‘rtburchak pishiq g‘ishtlardan qurilgan. Xonaning sharqiy devori va gumbazi $22 \times 22 \times 3,5\text{--}4$ sm o‘lchamdagi kvadrat g‘ishtlardan barpo etilgan (ba’zida $20 \times 20 \times 3\text{--}3,5$ sm o‘lchamdagi g‘ishtlar ham qo‘llangan). Pishiq g‘ishtlar loy qorishmasi asosida terilgan. Shunga qaramay, yer osti xonasining gumbazi va zinapoya ustidagi galereyaning asosiy qismi yaxshi saqlanib qolgan.

Axsikentda Sog‘d shaharlaridan farqli ravishda, kvadrat g‘ishtlar bilan bir qatorda to‘g‘ri to‘rtburchak g‘ishtlar kengroq qo‘llanilgan. Zinapoya ustidandan

XI–XII asrlarga oid sopol buyumlar topilgan. Stratigrafiya, qurilish materiali va topilmalarga asoslanib, mazkur gidrotexnik inshoot VIII-ob’ektdagi vodapovodning boshlanishi hisoblanib, X asrning ikkinchi yarmida qurilgan va 200 yildan ortiq vaqt davomida faoliyat ko‘rsatgan, degan xulosa qilish mumkin.



Rasm 4

XIX-obyekt ikkinchi shahristonning (Aksi IB) janubi-g‘arbiy qismida joylashgan (rasm 5; rasm 6). Bu yerda shahar devori va eroziya suv tarmog‘i qoldiqlari aniqlangan. Dastlab shahar devori miloddan avvalgi III–II asrlarda paxsa va yirik o‘lchamdagi xom g‘ishtlardan ($58\text{--}60 \times 10\text{--}12$ sm) qurilgan. Uning eni 5,30 m bo‘lib, qiyalik darajasi 20° dan ortiq bo‘lgan. Miloddan avvalgi I-asrning birinchi yarmida esa yaxshi ishlangan paxsa va $48\text{--}50 \times 28\text{--}30 \times 10$ sm o‘lchamdagi xom g‘ishtlardan ikkita mahobatli devor barpo etilgan. Natijada, shahar devorining qalinligi 20 metr, balandligi esa 20 metrdan ortiq bo‘lgan.

Shahar mudofaa tizimining o‘ziga xos jihati qurilishda relyefdan samarali foydalanilganidir. Dastlabki davrda minoralar vazifasini maxsus yo‘laksimon xonalar bajargan bo‘lsa, keyinchalik ularning o‘rnini devor ustida ko‘tarilgan, ammo tashqariga chiqmagan o‘ziga xos minoralar egallagan.



Rasm 5



Rasm 6

Ushbu mudofaa devor ostida pishiq g‘ishtlardan tunnel ko‘rinishida qurilgan ikkinchi eroosti suv tarmog‘i aniqlangan. U g‘arbiy rabod (Ahsi II) tomon yo‘nalgan. Suv tunnel ichidan o‘tgan tutash idishlar qonuni asosida sopol quvurlar orqali oqgan. Aniqlanishicha, quvur tizimi dastlab xandak ostiga 10 metr chuqurlikkacha tushirilgan, so‘ngg, yana 10 metr yuqoriga ko‘tarilgan. Demak, bundan ming yil avval faqq‘onaliklar tutash idishlar qonunini amalda foydalana olganlar.